



ZAMBURUG'LARNING TABIATDAGI VA INSON HAYOTIDAGI AMALIY AHAMIYATI

Niyozova Dildora Nuriddin qizi – Andijon davlat pedagogika instituti
Biologiya yo'nalishi talabasi

E-mail: otabekxodarboyev362@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi zamburug'lar bo'limining umumiy tavsifi, tuzilishi, sistematikasi, tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati to'g'risida qisqacha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar. zamburug', glikogen, mitselli, patogen, spora, geterotrof.

Аннотация. В диссертации дается краткий обзор общей характеристики, структуры, систематики и значения отдела грибов в природе и жизни человека.

Ключевые слова. Гриб, гликоген, мицелий, патоген, спора, гетеротроф.

Abstract. This thesis provides a brief overview of the general description, structure, systematics, and importance of the fungi department in nature and human life.

Key words. fungus, glycogen, mycelium, pathogen, spore, heterotroph.

Zamburug'lar qadimiy organizmlar bo'lib, evolutsiya jarayonida rangsiz sitoxrom C ga ega bo'lmagan xivchinlilarning Fiagellatae guruhidan kelib chiqqan. Shuning uchun ham zamburug'lar o'simliklar olami doirasida o'rganiladi. Ular geterotrof oziqlanishga moslashgan, ya'ni zamburug'lar tayyor organik moddalar bilan oziqlanuvchi organizmlar sanaladi. Assimilyatsiya vaqtida zamburug'larning hujayrasida kraxmal emas, balki, mochevina, glikogen hosil bo'ladi. Bundan tashqari hujayra devorlarida xitin to'planadi. Ushbu belgilari bilan zamburug'lar hayvonlar olamiga yaqin uradi. Zamburug'larni mikologiya fani o'rganadi.

Zamburug'lar turlarining miqdori jihatidan tuban o'simliklar ichida eng katta guruh hisoblanib, 100 mingdan turi mavjud shilimshiq'larga o'xshash zamburug'lar ham geterotrof oziqlanish xususiyatiga ega. Zamburug'larning bunday oziqlanishi va bir qator boshqa xususiyatlari ularning ham o'simliklarga ham hayvonlarga o'xshashligini ko'rsatadi.

Zamburug'lar bakteriyalardan farq qilib, eukariot organizm hisoblanadi. Zamburug'lar o'simliklar kabi erkin harakatlana olmaydi, hayvonlarga o'xshab geterotrof oziqlanadi. Zamburug'lar yashashi uchun ozuqa, harorat va namlik yetarli



bo'lishi kerak, yorug'lik bo'lishi shart emas. Ko'pchilik zamburug'larning (ba'zi hujayra ichki parazitlaridan tashqari) vegetativ tanasi mitseliy ko'rinishida, ya'ni oziqlanish substrati sirtiga yoki ichiga taralib, uchidan o'sadigan ingichka ipcha -gifalardan iborat. Ko'payishi. vegetativ va reproduktiv (jinssiz va jinsiy) ko'payadi. Vegetativ ko'payish mitseliy ipchalarining bo'linishi yoki sklerotsiyalar bilan amalga oshadi. Bu bo'lakchalar har xil yo'l bilan tarqalib, qulay sharoitga tushganda yangi mitseliysi hosil bo'ladi. Jinssiz kopayish mitseliyning maxsus shoxchalarida xreil bo'ladigan sporalar orqali ro'y beradi. Sporalar hosil bo'lishiga qarab endogen va ekzogen bo'ladi. Endogen sporalar odatda gifa (sporangiy yoki zoosporangiy)ning sharsimon uchlarida kup miqdorda rivojlanadi. Ekzogen sporalar (konidiyalar) mitseliyning maxsus hoxlarida yakka, guruh bulib, ko'pincha anjirsimon rivojlanadi. Jinsiy ko'payish ikkita har xil jinsiy hujayraning qo'shilishidan hosil bo'ladigan zigotalar orqali ro'y beradi. Hamma joyda keng tarqalgan. Aksari zamburug'larning tabiatda umri qisqa. Ularning mitseliysi bir necha sutkada rivojlanib, spora hosil qilgach, o'sishdan to'xtab, nobud bo'ladi. Mitseliysi ko'p yil yashaydigan zamburug'lar ham bor. Jumladan, patogen va parazit zamburug'lar mitseliysi bir necha yillab yashaydi.

Zamburug'larning sanoatda va xalq xo'jaligida ahamiyati juda yuqori bo'lib, ayniqsa qishloq xo'jaligida, meditsina va oziq-ovqat sanoatida keng qo'llaniladi. Urug'lanuvchi tanasi eng mo'jizakor tirik organizmlardan biri bo'lib, ular shakliga ko'ra qush uyasini, soch bog'lamlarini, hattoki, odam qulog'i suprasini ham eslatadi. Olimlar zamburug'ning o'simliklarga qaraganda hayvonga o'xshash jihatlari ko'proq, degan fikrni ilgari surishmoqda. Barchasi uchun umumiy bo'lgan jihat shundaki, ular organik moddalarning anorganik moddalarga aylanishida muhim rol o'ynaydi. Agar hayvonlar avval ozuqani yutib, so'ngara hazm qilsa, zamburug'lar aksincha, avval ozuqani hazm qilib, keyin oziqmoddalarni yutadilar. Bu holat ularning azaliy jumbog'i bo'li kelmoqda. Yutish va hazm qilish jarayoni "gifalar" deb ataladigan ipsimon hujayralar bajaradi. Gifalar juda nozik bo'lishidan tashqari, uzun va ular daraxtning ildizidan to yuqori qismiga qadar o'sadi, yerda shoxchalar hosil qiladi. Yog'och bilan oziqlangan ayrim gifalar u daraxtdan bu daraxtga ildiz otib, butun boshli ko'chani qoplab oladi.

